

**TABIY FANDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH**

*Sirdaryo viloyati, Sirdaryo tumani*

*25-son umumta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

***Narzullayeva Chevargul Xolmuratovna***

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada mediakompetentlik va darslarda goydalaniladigan programmalar "Solar system", "Google Maps", "Google Earth" haqida ma'lumot berib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** mediakompetentlik, Solar system, Google Maps, Google Earth

Bo'lajak tabiiy fanlar o'qituvchilarining mediakompetenligini rivojlantirishi, o'qituvchining faoliyati tobora ko'proq professional vosita sifatida ommaviy axborot vositalaridan foydalanishi, ta'lim maqsadlariga erishishib, o'quv jarayonining mazmun mohiyatini ochib berishni o'z ichiga oladi. Bunda zamonaviy ilmiy-texnik taraqqiyot talablariga mos holda pedagogik oliy ta'lim muassasalari bo'lajak tabiiy fanlar o'qituvchilarining axborot texnologiyalari bilan ishlash mediakompetentligini rivojlantirishda quyidagi masalalar yuzaga keladi:

-mediakompetentligini rivojlantirish uchun axborot kommunikatsion texnologiyalarini puxta o'rganilganligi;

-har bir bo'lajak o'qituvchi o'zining mediakompetentligi natijasida o'z sohasidagi axborotlarni tahlil qila olishi;

- mediakompetentligining shakllantirilganligi natijasida o'z kasbiy faoliyatida samarali qo'llay olishi.

Bo'lajak tabiiy fanlar o'qituvchilari mediatexnologiyalardan foydalanish usuli o'quv jarayonida ta'limning dolzarb masalalalarini samarali yechish imkoniyatini yaratadi , jumladan:

-o'quv jarayonini qizqarli va mahsuldot qilish hisobiga o'quvchida materialni anglab olish motivatsiyasi ortadi:

-mustaqil ishslash va o'zini-o'zi nazorat qilish ko'nikmasi rivojlanadi;

-darsning samaradorligini va har bir o'quvchining o'zlashtirilishini ta'minlaydi;

-har bir o'quvchining fikrlashini, bilishhissiyotini, maqsad sari intilishlarini, ma'naviy tassavurlarini rivojlantirish hisobiga umumiylashtirish faol rivojlanishga erishiladi;

-sinfdagi barcha o'quvchilarning faol ishslash ta'minlanadi.

Mediatexnologiyalarni o'quv jarayoniga kirib kelishi, pedagoglar hayotida misli ko'rilmagan darajada o'qitishning yangi turlarini shakllarini keltirib chiqardi. Darslarda mediatexnologiyalarda foydalanish pedagoglar oldiga quyidagi talablarni qo'yadi:

-zamonaviy pedagog kompyuterdan foydalanishni bilishi;

-kompyuter yordamida o'qitish vositalalaridan foydalana olish va uni o'quv jarayoniga tadbiq qilish ko'nikmalariga ega bo'lish

-o'z bilimini kompyuterli o'qitish bo'yicha doimo takomillashtirib borish;

Media ta'lif usullari quyidagilarga ko'ra tasniflanishi mumkin: olingan bilim manbalari: og'zaki (ma'ruza, hikoya, suhbat, tushuntirish, munozaralar); ko'rgazmali (mediatekstlarning (mediatexistlarning tasvirlari va namoyishi); amaliy (media materiallarida turli xil amaliy vazifalarni bajarish). Kognitiv faoliyat darajasiga ko'ra: tushuntirish-tushuntirish (o'qituvchi tomonidan ommaviy axborot vositalari haqida aniq ma'lumot, auditoriya tomonidan ushbu ma'lumotni qabul qilish va assimilyatsiya qilish); reproduktiv (o'quvchilarini hal qilish usullarini o'rganish uchun media materiallarida turli mashqlar va topshiriqlarni o'qituvchi tomonidan ishlab chiqish va qo'llash), muammoli (tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun muayyan vaziyatlarni yoki ommaviy axborot vositalarini muammoli tahlil qilish); qisman qidirish yoki evristik, tadqiqot (tadqiqot va ijodiy faoliyatni tashkil

etish). Shu bilan birga, turli xil ijodiy vazifalarni o'z ichiga olgan nazariy va amaliy mashg'ulotlar ustunlik qiladi.

Yuqoridagilardan xulosa qilish kerakki, bo'lajak tabiiy fanlar o'qituvchisi talim-tarbiya ishlarini yuqori saviyada tashkil qilshi darkor. Xususan: -mashg'ulotlarni davlat ta'lim standartlariga muvofiq holda tashkil qilish va olib borish;

-darslarlarni zamonaviy pedagogik usullar va AKT vositalari asosida tashkil qilish;

-talimni tarbiya bilan uzviy holda olib borish, o'quvchilarning manaviy-marifiy ongini shakllantirish va h.k. kabi vazifalarni oqilona hal etish lozim.

Tabiiy fanlarda kompyuter orqali "Google Maps", "Google Earth", "Solar system" programmalari orqali dars o'tilganda dars tushunarli va qiziqarli bo'ladi. O'qituvchi og'zaki tushuntirgandan ko'ra samarali natijaga erishadi. Masalan: "Solar system" programmasi orqali "Sayyoralar" mavzusini o'tyotganimizda har bir sayyorani ichigacha kirib o'rghanish mumkin, bu esa o'quvchilar uchun og'zaki tushuntirgandan ko'ra ancha tushunarli bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mamatova Ya, Sulaymanova S, O'zbekiston mediate lim taraqqiyoti yo lida. O'quv qo'llanma. Tashkent: Extremum-press, 2015.
2. Babadjonov S.S, Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarining mediakompetentligini rivojlantirish texnologiyasi. Pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati. -Toshkent: 2018.
3. Muslimov N.A, Kasb ta limi o qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: Ped.fan. dok..dis. Avtoreferat.T,
4. Maxmudov AX. Bo lajak magistrlarni kompetentli tayyorlashning didaktik ta'minotini takomillashtirish. Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. -T.2017.

5. Taylaqov N. I. Uzluksiz ta lim tizimi uchun informatikadan o quv adabiyotlari yangi avlodini yaratishning ilmiy pedagogic asoslari.-T: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2005.
6. Yuldashev U. Y, Mamarajabov M. E, Tursunov S. k. Pedagogik Web-dizayn. O'quv qo'llanma.-T.Voris, 2013.
7. <https://www.researchgate.net/publication/314724552162-C>
8. Кахарова, Н. (2023). Применение информационных технологий при изучении русского языка в начальной школе. in Library, 18(1).